

ЎЗБЕКСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ  
ЖОҚАРЫ ҲӘМ ОРТА АРНАЎЛЫ  
БИЛИМЛЕНДИРИЎ  
МИНИСТРЛИГИ



ЭЖИНИЯЗ АТЫНДАҒЫ  
НӨКИС МӘМЛЕКЕТЛИК  
ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ИНСТИТУТЫ  
ҚАРАҚАЛПАҚ ӘДЕБИЯТЫ  
КАФЕДРАСЫ



«ТҮРКИЙ ХАЛЫҚЛАРЫ ФОЛЬКЛОРЫ ҲӘМ  
ӘДЕБИЯТЫ ТАРИЙХЫ ИЗЕРТЛЕНИЎИНИҢ  
ӘҲМИЙЕТЛИ МӘСЕЛЭЛЕРИ»  
АТАМАСЫНДАҒЫ ONLINE ХАЛЫҚАРАЛЫҚ  
ИЛИМИЙ-ТЕОРИЯЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРЫ

27-28-may  
2020-jil

УДК 821.51  
ББК 82.3 (5узб) 5кк  
Т-88

«Туркий халықлар фольклоры хәм әдебияты тарийхы изертлеўиниң әхмийетли мәселелери» атамасындағы халықаралық көлемде online илимий-теориялық конференция МАТЕРИАЛЛАРЫ. Нөкис: НМПИ баспасы, 2020. -442 бет

«Туркий халықлар фольклоры хәм әдебияты тарийхы изертлеўиниң әхмийетли мәселелери» атамасындағы халықаралық көлемде online илимий-теориялық конференция материалларына Туркия, Россия, Татарстан, Башқортостан, Қазақстан хәм Өзбекстан мамлекетлерниң жоқары хәм орта арнаўлы оқыў орынлары педагог-хызметкерлери, Илим изертлеў институтларының үлкен илимий хызметкерлери, магистрантлар, студентлер хәм улыўма билим бериў мектеплери баслауыш тәлим муғаллимлери хәм методика пәнин оқытыўдың актуаль мәселелерине арналған илимий баянатлары киргизилген.

Жуўаплы илимий редактор: Алламбергенов К. ф.и.д., проф  
Бекбергенова М. ф. и. к., доц.

Редколлегия ағзалары: Курамбаев К. ф.и.д., проф.  
Ибрагимов Ю. ф.и.д., проф.  
Рақымжан Тұрысбек. ф.и.д., проф.( Қазақстан)  
Мингазова Л.И. ф.и.д., проф.( Татарстан)  
Валиева М.Р. ф. и. к.(Башқортостан)  
Каюмова Г.Ф. ф. и. к., доц. (Татарстан)  
Бекбергенова М. ф. и. к., доц.  
Давлетов Б. ф. и. к., доц.  
Алланазаров Е. ф. и. к.  
Пирниязова А. ф. и. к., доц.  
Ташанов К. ф. и. к., доц.  
Юлдашева Ш. ф. и. к., доц.  
Матякубов С. ф. и. к., доц.  
Куттымуратова Ы. (PhD)  
Торткулбаева Т. (PhD)  
Сапаева Ф. (PhD)  
Мәмбетов Қ. (PhD)

Баспаға таярлаған: Бекбергенова М. ф.и.к., доц.  
Жаксылыкова А.

**Топлам Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институтының Илимий-оқыў-методикалық Кецеси ( 2020-жыл, 20-апрель 9-санлы баянлама) қарары менен баспадан шығарыуға усыныс етилди.**

Конференция материалларының мазмуны хәм дурыслығына хәр бир автор хәм илимий басшы жуўапкер, шөлкемлестириушилер мағлыуматлардың дурыслығына жуўап бермейди.

**III СЕКЦИЯ  
ТИЛ БИЛИМИ**

**O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA LOTIN YOZUVLI O‘ZBEK ALIFBOSI BILAN  
BOG‘LIQ MUAMMOLAR: TURKIYA MISOLIDA TAHLIL VA  
TAKLIFLAR  
Raile KASHGARI**

*Filologiya fanlari doktori, dotsent, İstanbul universiteti adabiyot fakulteti hozirgi turkiy tillar va adabiyotlari bo‘lim. İstanbul, Turkiya*

***Annotatsiya.** İstanbul Universiteti Adabiyot Fakulteti Hozirgi Turk Tillari va Adabiyotlari Bo‘limidagi o‘zbek tili ta‘limi olib borilmoqda. Lotin yozuvli o‘zbek alifbosida o‘qish asnosida ham ba‘zi xatolar ko‘zga tashlanmoqda. Bu xatolar bir harfning ikki tovushni ifodalashi va ikki harfning bir tovushni ifodalashi jarayonida sodir bo‘lgan.*

*Mazkur maqolada o‘zbek tili ta‘limida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi bilan bog‘liq muammolar haqida so‘z yuritiladi. Ko‘zlangan maqsad ana shu muammoni muhokamaga olib chiqish, masalaning yechimiga doir takliflarni ilgari surish va muammoni hal etishga hissa qo‘shishdir. Maqolada ta‘lim tajribasi metodi tadbiiq etilgan.*

***Kalit So‘zlar:** o‘zbek tili, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi, muammo*

**Özbek Latin Alfabetesinin Özbekçe Eğitim Öğretimdeki Zorlukları:  
Türkiye Örneği Üzerine Tespitler ve Öneriler**

***Öz.** İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümünde Özbek dili öğretilmektedir. Eğitim öğretim sürecinde Özbek-Latin alfabesinin, Özbek dili eğitiminde bazı zorlukları oluşturduğu tespit edilmiştir. Bu zorluklar, bir harf ile iki sesi ifade etme ve bir sesi çift harf ile ifade etme durumunda ortaya çıkmaktadır.*

*Çalışmanın kapsamı, Özbek dilinin Türkiye’de öğretilmesinde Özbek-Latin alfabesinin getirdiği zorluklar ve çözüm önerileridir. Çalışmada, öğretim deneyi yöntemi uygulanmıştır. Çalışmanın amacı, problemi tartışmaya açmak, problemin çözümüne yönelik önerileri paylaşmak ve çözümün gerçekleşmesine ve geliştirilmesine katkıda bulunmaktır.*

***Anahtar sözcükler:** Özbek Dili, Özbek-Latin alfabesi, problem  
**Difficulties of Uzbek Latin Alphabet in Uzbek Education  
Analyses and Suggestions on Example of Turkey***

***Abstract.** Uzbek language is lectured in İstanbul University, Faculty of Literature, Department of Modern Turkish Dialect and Literature. It has been detected that Uzbek-Latin alphabet poses some difficulties in lecturing Uzbek language in process of education. Those difficulties arise in cases where two vocals are represented by one letter and a vocal is represented by two vocals.*

*The scope of the study is difficulties arising from lecturing Uzbek language in Turkey and suggestion of solutions. Education test method is applied in the study. The purpose of the study is to open the problem for discussion, sharing suggestions for the solution of the problem and to contribute to the realization and development of the solution.*

**Keywords:** *Uzbek language, Uzbek-Latin alphabet, problem*

**Проблемы преподавания узбекского языка при использовании узбекской латиницы: Выводы и рекомендации, сделанные на примере Турции**  
**Аннотация.** *Узбекский язык преподается на кафедре Наречий и Литературы Современных Тюркоязычных Народов на Литературном Факультете Стамбульского Университета. В процессе обучения было установлено, что латинский узбекский алфавит создает некоторые трудности в преподавании узбекского языка. Трудности возникают, когда необходимо выразить два звука одной буквой или один звук двумя буквами.*

*Исследование охватывает проблемы, возникающие вследствие использования узбекского латинского алфавита в процессе преподавания узбекского языка в Турции и рекомендации по их решению. В работе применялся метод учебного эксперимента. Цель исследования состоит в том, чтобы вынести эту проблему на обсуждение, поделиться предложениями по ее решению и внести вклад в реализацию и развитие этого решения.*

**ключевые слова:** *узбекский язык, узбекско-латинский алфавит, проблема*

### **Kirish**

Turkiya tashqarisidagi turkiy xalqlarning tili siyosiy jihatdan qaralganda mustaqil davlatning mustaqil tili sifatida izohlansa ham, ilmiy jihatdan ildizlari bir, geografik joylashuv va tarixiy jarayonlar sababli yuzaga kelgan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladigan umumiy turk tilining alohida tarmoqlari, eski turk tilining lahjalaridir. 20-asrdan avvalgi davrlarda qo'llanilgan lahjalar (Qoraxoniylar turkchasi, Oltin O'rda turkchasi, Usmoniy turkchasi, Chig'atoy turkchasi kabi) tarixiy turk lahjalari deb nomlanadi. 20-asrdan keyin esa Hozirgi turk lahjalari deb yuritilgan ba'zi tillar etnik nomi yoki geografik o'rniga ko'ra nomlana boshlandi. Masalan, o'zbek turkchasi, qozoq turkchasi, uyg'ur turkchasi, ozarbayjon turkchasi, Turkiya turkchasi.

Turkiya tashqarisidagi turkiy xalqlarning tili Turkiya ilmiy muhitida turk tilining Turkiya turkchasi kabi bir tarmog'i sifatida qabul qilinganligi bois o'zbek tiliga xorijiy til sifatida qaralmaydi. Shuning uchun ham Turkiya oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti, qozoq tili va adabiyoti, uyg'ur tili va adabiyoti nomli bo'limlar yo'q. Turkiyadan boshqa joylardagi turkiy xalqlarning tili va adabiyoti Hozirgi turk lahjalari va adabiyotlari nomli bo'limlarda o'qitilmoqda.

O'zbek tili Hozirgi Turk Lahjalari va Adabiyotlari bo'limlarida qozoq tili, qirg'iz tili, uyg'ur tili, tuva tili kabi lahjalar bilan birga o'qitilmoqda. Hozirgi Turk Lahjalari va Adabiyotlari bo'limi bo'lmagan universitetlarda esa turk tili va adabiyoti bo'limida eski turk tili, yangi turk tili, eski turk adabiyoti, yangi turk

adabiyoti, turk xalq adabiyoti kabi ixtisoslik yoʻnalishlaridan biri boʻlgan Hozirgi turk lahjalari va adabiyotlari yoʻnalishida oʻzbek tili oʻrgatib kelinmoqda. Hozirgi turkiy tillar va adabiyotlar yoʻnalishi boʻlmagan oliy oʻquv yurtlarida turk tili va adabiyoti boʻlimining qaysidir yoʻnalishida kam boʻlsa ham hozirgi turkiy tillar va adabiyotlariga doir darslar olib borilmoqda. Bunday universitetlarda oʻzbek tili darslari oʻqituvchi kadrlarning qiziqishlari va bilim darajalari doirasida tashkil etilishi mumkin.

Oʻzbek tilini oʻrganuvchi talabalar litseylarni tamomlab, markaziy tizimga asoslangan universitet imtihonlarida maʼlum bir natijaga erishgan yoshlardir. Talabalarning koʻpchiligi 18-20 yosh. Ularning orasida bir universitetni tamomlab, ikkinchi universitetda taʼlim olayotgan talabalar hamda 30-40 yoshida oliy taʼlimga kelgan kishilarni ham uchratish mumkin. Bundan tashqari, kam boʻlsa ham xorijlik talabalar ham bor. Oʻzbek tilini oʻrganayotgan talabalarning 98 foizini Turkiya turklari tashkil qiladi desak yolgʻon boʻlmaydi.


Istanbul Universiteti Adabiyot Fakulteti Hozirgi Turk Tillari va Adabiyotlari Boʻlimidagi oʻzbek tili taʼlimi jarayoni misolida aytishimiz mumkinki, talabalar ham kirill, ham lotin yozuvlarini oʻrganmoqdalar. Kiril yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosidagi baʼzi harflar tatar turkchasi, qozoq turkchasi kabi turkiy xalqlarning alifbosidan farqlanishi sababli turli lahjalarga oid matnlarni oʻqishda chalkashliklarga sabab boʻladi. Lotin yozuvli oʻzbek alifbosida oʻqish asnosida ham baʼzi xatolar koʻzga tashlanmoqda.

Mazkur maqolada oʻzbek tili taʼlimida lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi bilan bogʻliq muammolar haqida soʻz yuritiladi. Koʻzlangan maqsad ana shu muammoni muhokamaga olib chiqish, masalaning yechimiga doir takliflarni ilgari surish va muammoni hal etishga hissa qoʻshishdir.

Maqolada Istanbul Universiteti Adabiyot Fakulteti Hozirgi Turk Tillari va Adabiyotlari Boʻlimi misolida butun Turkiyadagi oʻzbek tili taʼlimiga oid muammolar tahlil etiladi. Chunki boshqa tadqiqotchilar ham ushbu masala boʻyicha oʻz fikrlarini oʻrtoqlashdilar (Tekin 2008: 604-616). Taʼlim tajribasi metodi tadbiiq etilgan mazkur maqola Turkiyada oʻzbek tili taʼlimi yoʻnalishida lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi bilan bogʻliq muammolar va ularning yechimiga doir takliflarni oʻz ichiga oladi.

**Oʻzbek tilini oʻqitishda taʼlim tajribasi.** Taʼlim tajribasi metodi aslida tadqiqotchilar tomonidan talabalarning matematik bilimlarini oʻquv jarayonida qanday oʻzgarib borishini kuzatish uchun amalga oshiriladigan tadqiqot sifatida izohlanadi (Czarnocha & Maj 2008: 48). Maqolada bu metod yordamida til taʼlimida alifboning oʻrgatilishi va bu bilimlarga asoslanib soʻzlarni oʻqish jarayoniga oʻtish, oʻqish jarayonida yangi maʼlumotlarga ega boʻlgach, yangi soʻzlarni oʻqishda alifbodagi harflarning oʻzgarishi haqida soʻz yuritiladi.

Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini oʻrgatishda taʼlim tajribasini oʻtkazish uchun quyidagi sxema asosida ish yuritildi. Oʻqitishning har bir boʻlimida oldingi boʻlimda egallangan bilimlar tahlil qilingan, oʻrganish jarayoni bilan bogʻliq xulosalar chiqarilgan va tajriba natijalariga doir taxminlar ilgari surilgan.



1-rasm. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining o'rgatilishiga doir ta'lim tajribasining tarkibiy bo'limlari (teaching episodes)

Ta'lim tajribasini o'tkazishdan avval qatnashuvchi talabalarga alifbo haqida nazariy ma'lumot berildi. 1- o'quv bo'limida unli va undosh harflar alohida ko'rib chiqildi, harflar bildirgan tovushlar, Turkiya turkchasidagi qaysi harflarga mos kelishi haqida batafsil ma'lumot berildi. Bundan tashqari, kirill yozuvini ham bilganliklari uchun lotin yozuvli o'zbek alifbosining tovushlari bilan qiyoslandi. Bu bosqichda talabalarning kirill va lotin yozuvli alifbolar haqidagi bilimlari tekshirildi va har ikki alifboning tovushlarni ifodalashdagi o'xshash va farqli jihatlariga oid tajribalar o'tkazildi. O'rganish jarayoniga doir hech qanday kamchiliklar aniqlanmadi. Shundan so'ng 2- bo'limga oid taxminlar aniqlandi, talabalar o'rgangan lahjalaridagi mushtarak so'zlarni avvaldan tanish bo'lgan alifbo va tovushlariga qarab, to'g'ri o'qib to'g'ri tushuna oladilar deb, taxmin qilindi.

2- bo'limga o'tilganida namuna sifatida keltirilgan so'zning morfologik tuzilishiga izoh berildi. (*masalan : o'qi-sa-ngiz-lar*). Talabalar so'z shakli haqida to'liq ma'lumot olganlaridan so'ng ulardan so'zni o'qishlari talab etildi. Mana shu bosqichda harflarni to'g'ri o'qiy olmaslik muammosi kuzatildi. Bu holat tahlil qilinganda to'g'ri o'qiy olmaslik muammosi barcha so'zlarga tegishli emasligi aniqlandi. Talabalar nazariy bilimlarini amalda qo'llash jarayonida ba'zi so'zlarni xato o'qiganliklari ma'lum bo'ldi. Bu yerda sotsiyokulturologik omil asosiy rol o'ynagan deyish mumkin. Sotsiyokulturologik nazariyaga ko'ra insonning aqliy rivoji atrof-muhitga moslashish jarayoni sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, talabalar o'zbek tili muhitida bo'lmaganliklari uchun so'zlarni o'qishda Turkiya turkchasi muhitiga moslashtirishga harakat qiladilar. Talaba


tomonidan avvaldan o'zlashtirilgan alifbo va tovushlarga oid ma'lumotlar so'zning tarkibida uchraganda sotsiyokulturologik muhitga mos ravishda o'zgargan.

Lotin yozuvli alifboni o'qitish bilan bog'liq tajribada 3 yil mobaynida turli guruhlardagi 100 talaba qatnashdi. Talabalarning o'qishlarini tekshirish uchun 2-rasmda keltirilgan so'zlar berildi.

Tur	Lotin yozuvli alifbodagi so'zlar		
1	Bu	Til	Vaqt
2	Aka	Oylar	Ich
3	Un	ICH	bo'l-
4	o'qisangiz	Javob	shoshil-

2-rasm. Ta'lim tajribasida tekshirish uchun tanlangan so'zlar.

Kalit so'zlarni tanlash asnosida birinchi tur alifbo jihatidan Turkiya turkchasiga to'liq mos keladigan, tovush jihatidan farq qilmaydigan so'zlardan tashkil qilingan. Talabalar birinchi turdagi so'zlarning barchasini to'g'ri o'qishgan. Ya'ni 1- tur so'zlarning tajriba natijalari taxmin qilingan darajada bo'lgan. Boshqa turlardagi so'zlar tovush xususiyati alifbodagi harflardan farqli bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Tajribada eng ko'pi bilan 90 eng kami 50 talaba tomonidan so'zlarning to'g'ri o'qilishi kutilgan edi. Ammo tajriba yakunida bu taxminning noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. To'rt turdagi so'zlarning to'g'ri o'qilishiga doir tajriba 3-sxemada ko'rsatilgan.



3-rasm. So'zlarning to'g'ri o'qilish holatlarini ko'rsatuvchi grafik

Bu grafik ma'lum bir so'zlarni to'g'ri o'qigan talaba sonini ko'rsatish bilan birga lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining o'zbekcha o'rganish jarayonida yuzaga keltirgan qiyinchiliklarni ham yaqqol ko'rsata olganligi bilan juda muhimdir. Chunki talaba lotin yozuvli o'zbek alifbosini o'rgangandan so'ng fonetika bo'limida qaysi tovushlarni so'zlar tarkibida qanday o'zgarishi mumkinligi va harflarning tovush xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lgan. Lekin *un* kabi Turkiya turkchasi bilan bir xil ma'noga ega so'z atigi 15 kishi tomonidan to'g'ri o'qilgan. *Ich*

soʻzini 99 kishi toʻgʻri oʻqigan boʻlsa, *ICH* soʻzini 30 kishi toʻgʻri oʻqiy olgan. *Shoshil*- soʻzidagi undoshlarning esa barcha talabalar tomonidan toʻgʻri oʻqilishi kutilgan boʻlsa ham 33 kishi bu soʻzni *shos-hil* shaklida oʻqidi. Tajribada kutilgan natijaga erisha olmaganimiz lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosining til oʻqitish jarayonida qanchalik qiyinchilik tugʻdirayotganini koʻrsatadi.

Bu grafikda koʻrinib turganidek, yozilishi Turkiya turkchasi bilan bir xil boʻlgan soʻzlarni oʻqishda hech kim xatoga yoʻl qoʻymagan. Bir tovush harf birikmasi bilan ifodalangan soʻzlarga doir tajriba natijalari kutilgan natijalardan ancha farq qiladi. Sotsiokulturologik farqlarni bartaraf etuvchi maʼlumotlar ilk bosqichda va 1- oʻquv boʻlimida yetkazilganligini inobatga olsak, xatoliklarning sababi alifboning chalkashtiruvchi omili deyish mumkin.

Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosida notoʻgʻri oʻqish holatlarining eng koʻp qaysi harflar bilan bogʻliq ekanligi quyida unli va undosh harflar misolida batafsil koʻrib chiqiladi.

## **2. Til oʻrganishda unli tovushlarni ifodalovchi harflar bilan bogʻliq qiyinchiliklar**

### **A a harfi**

Bu harf keng, lablanmagan, orqa qator /a/ tovushini ifodalaganida talabalar uchun qiyinchilik tugʻdirmaydi. Masalan, birinchi turdagi *vaqt* soʻzini 100 talabaning barchasi toʻgʻri oʻqiy olgan. Ammo yarim ochiq, lablanmagan, old qator unlisi ifodalangan *aka* soʻzini faqat 35 kishi toʻgʻri oʻqiy olgan.

Turkiyadagi adabiyotlarda bu tovushning transkripsiyasi a va ä shaklida beriladi. Xalqaro Fonetik Alifbo (*International Phonetic Alphabet, IPA*) tizimiga koʻra /a/ (a) va /ɛ / (ä) boʻlgan tovushlar, lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosida birgina Aa harfi bilan ifodalanadi. Alifboda bu tovushlar farqlanmaganligi uchun talaba harfni qanday oʻqilishi haqida maʼlumotga ega boʻlishiga qaramay, alohida soʻzlarni oʻqishda tovushni farqlay olmaydi va xatolikka yoʻl qoʻyadi.

Bu holat esa Onadoʻli turklarining oʻzbekcha soʻzlarni xuddi xorijiy tilda oʻqigandek talaffuz qilishlariga sabab boʻlmoqda. Soʻzlarni oʻrganish bilan bogʻliq muammolar tufayli mushtarak madaniyatga ega boʻlgan, tarixi bir jamiyatlarning aʼzolari umumiy qadriyatlarga emas, farqli jihatlarga koʻproq eʼtibor qaratishga majbur boʻlmoqdalar.

**O o harfi:** Tajribada berilgan soʻzlar orasida 2-turdagi *oylar* soʻzi tarkibida /o/tovushi yarim lablangan, keng, orqa qator(*a-o* oʻrtasi) unlisi boʻlib, IPA tizimiga koʻra /ɒ/ belgisi bilan ifodalanadi (Coşkun 2014: 32). Turkiyadagi adabiyotlarda bu tovush transkripsiyasi å belgisi bilan beriladi. 41 talaba bu tovushni toʻgʻri oʻqigan.

**Ii Harfi** 3-turdagi *ICH* soʻzidagi unli old qator, tor unli /i/ tarzida oʻqilishi kerak edi. Lekin atigi 30 talaba bu soʻzni toʻgʻri oʻqiy olgan. Qolganlar esa bu tovushni IPA tizimida /i/ belgisi bilan ifodalangan tor, lablanmagan, orqa qator unlisi shaklida oʻqigan. 2-turda *ich* shaklida kichik harflar bilan keltirilganda 90 talaba toʻgʻri oʻqiy olgan. Xatolikka yoʻl qoʻygan talabalarining koʻrsatgan sabab esa *ch* harf birikmasini koʻrib ikkilanib qolganliklaridir.

Turkiya turkchasida bu tovush old qator, tor unlisi /i/ va orqa qator, tor unlisi /ɪ/ shaklida qoʻllaniladi. Aslida /ɪ/ tovushi eski turkiy til davridan beri mavjud. (Eraslan



2012: 65, Omonov 2016: 86). Talaba tomonidan *ICH* soʻzining xato oʻqilishi ham uning bu haqida maʼlumotga ega boʻlganligi bilan bogʻliq. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosidagi I i harflari talabalarning katta I va kichik i harflarining alohida ikki tovush shaklida qabul qilishlariga sabab boʻlmoqda.


**Oʻ oʻ Harfi** Bu harfning oʻqilishiga doir koʻnikmalar 3-turdagi *boʻl-* soʻzi yordamida tekshirildi. 15 talaba bu soʻzni 2 xil oʻqish mumkinligini aytishgan. Yaʼni, toʻgʻri oʻqish darajasi ancha past. IPA tizimida /o/ tovushini ifodalagan yarim ochiq, orqa qator, lablangan unlini (masalan : *boʻl-*: *Ona yurtning omon boʻlsa, rangi roʻying somon boʻlmas*) va /ø/ belgisi bilan ifodalangan (Coʻskun 2014: 32) yarim ochiq, orqa qator, lablangan unlini (Masalan : *boʻl-* : *Buni bolalarga boʻlib bering / boʻlinganni bori yer* ) oʻzbek alifbosida bir harf aks ettirmoqda.

Bir harfning ikki tovushni ifodalashi ona tili oʻzbekcha boʻlmagan talabalarning soʻzlarni toʻgʻri oʻqishlarida xalaqit beruvchi omillardandir.

**Uu Harfi.** Bu harf oʻqilishi 3-turda joylashgan *un* soʻzi yordamida koʻrib chiqildi. 15 kishi u harfini ikki xil oʻqish mumkinligini aytishgan. IPA tizimiga asosan /u/ belgisi bilan ifodalangan yopiq, orqa qator, lablangan unli (Masalan: *Un boʻlsa ovqat qilaman.*) va /y/ bilan ifodalangan (Coʻskun 2014: 32) yopiq, old qator, lablangan unli (Masalan: *unlilar imlosi* ) uchun bir harfdan foydalanish ham xatoliklarga sabab boʻlmoqda.

Turkiyada oʻzbek tili darslarida bu harflar transkripsiya alifbosi yordamida oʻrgatib kelinmoqda. Shunga qaramay, talabalar yangi soʻzga duch kelganlarida ikkilanib qolishmoqda.

Toʻgʻri oʻqish qiyin boʻlgan bu harflarning taʼlim jarayonida qoʻllanilayotgan transkripsiya 4-rasmda koʻrsatilgan.



4-rasm. Ikki tovushni ifodalagan harflarning (unlilarning) taʼlimda transkripsiya alifbosi bilan koʻrsatilishi

### 3. Til oʻrganishda undoshlarni ifodalovchi harflar bilan bogʻliq qiyinchiliklar

Undoshlarni ifodalovchi harflar orasida talabalar tomonidan eng koʻp xato oʻqilishi mukin boʻlgan harflarni quyida koʻrib chiqamiz.


#### Ng ng harfi

Yangi soʻzini oʻrganayotganda *yan-gi* deb ikki boʻgʻin va /n/, /g/ tovushlarini ikki alohida harf sifatida oʻqigan talaba *oʻqisangiz* soʻzini koʻrganida burun tovushini ifodalovchi *ng* harf birikmasini toʻgʻri oʻqishga qiynaladi. 13 talaba bu soʻzda *ng* harf birikmasining bir tovushni ifodalashini toʻgʻri anglagan. IPA tizimida /ŋ/ belgisi bilan koʻrsatilgan jarangli, sonor, til orqa undoshi oʻzbekcha bilan bir guruhga kiruvchi uygʻur tilida *dengiz* (de-ŋiz), *yengi* (ye-ŋi) kabi soʻzlarda saqlanib qolgan. Bu soʻzlarning oʻzbek tilida *den-giz*, *yan-gi* shaklida yozilishi kirill alifbosidan meros boʻlib qolgan kamchiliklardan biri boʻlishi mumkin. *Oʻqisangiz* soʻzining *oʻqi-sa-ŋiz* (*oʻqi-sa-ŋiz*) shaklida emas, *oʻqi-san-giz* shaklida boʻgʻinlarga ajratilish holatlari kuzatilayotganiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, yuqoridagi kamchilik lotin yozuvli oʻzbek alifbosida ham davom etishi mumkinligi ayon boʻladi. Yaʼni feʼlning shart mayli qoʻshimchasi va 2-shaxs –son qoʻshimchasi shakl jihatdan oʻzgarib, notoʻgʻri tushunish holatlariga sabab boʻlishi mumkin. Zero, gramatik tuzilishdagi buzilishlar tilning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Oʻtkazilgan taʼlimiy tajriba asnosida /n/ va /g/ tovushlari yonma-yon kelgan *menga* (*man-ga*), *vatanga* (*va-tan-ga*) kabi soʻzlarning ham xato oʻqilishi maʼlum boʻldi. Baʼzi talabalar ikki tovushni bir tovush *ŋ* sifatida *me-ŋa*, *va-ta-ŋa* tarzida oʻqiganliklari kuzatildi.

### Jj Harfi

Bu harfning oʻqilishiga oid koʻnikmalar 4-turdagi *javob* soʻzi orqali tekshirildi. Turkiya turkchasida *cevap* shaklida qoʻllaniladigan bu soʻz kerakli nazariy bilimlarni egallagan talabalar tomonidan toʻgʻri oʻqilishi kutilgan edi. Ammo faqatgina 12 kishi toʻgʻri oʻqiy olgan. IPA tizimida /ʒ/ belgisi bilan ifodalangan jarangli, til-milk, til oldi undoshi va /dʒ/ belgisi bilan ifodalangan (Coşkun 2014: 38) jarangli, til oldi, til-milk qorishiq undoshi oʻzbek alifbosida bir harf koʻrinishida yoziladi. Turkiya turkchasida esa *j* harfi /ʒ/ tovushini bildiradi. *Javob* soʻzini oʻqishda talabalarni chalgʻtuvchi omil ham ana shu ikki tovushning alifboda bir harf bilan berilishidir. Turkiya taʼlim tizimida bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun soʻz tarkibida harflarning oʻqilishi 5-rasmda koʻrsatilgan 2 belgi bilan ifodalanmoqda.



5-rasm. Ikki tovushni ifodalovchi harflar (undoshlar) transkripsiyasining berilishi

#### 4. Takliflar

Turkiy tillar matematik aniqlikka asoslangan agglyutinativ tillar hisoblanadi. Turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili ham xuddi shunday xususiyatga ega. Hozirgi o'zbek tili tarixiy chig'atoy adabiy tilining davomi bo'lib, rivojlantirilgan adabiy til sifatida aniq qoidalarini mukammallashtirishi kerak edi. Tilning ichki xususiyati bo'lgan qalin (orqa qator) va ingichka (old qator) tovushlar moslashuvi qonunining buzilmasligi, aksincha, takomillashtirilishi imkoniyat darajasida turkchadan uzoqlashmasligiga, keyingi avlodlarning tildan bemalol foydalanishlariga, shu bilan birga boshqa turkiy tillardan uzoqlashib ketmasligiga xizmat qiladi. O'zbek tilining o'z qonuniyatlari doirasida yangi, qo'llanilishi oson so'zlarni yaratish borasida turkcha, o'zbekcha so'z yasash qoidalariga rioya qilinadigan til sifatida o'z o'rniga ega bo'lishi ham davlatning kuch-qudrati, ham o'zbek tilining obro'si nuqtai nazaridan juda muhimdir. Alifbodagi *o', g', sh, ch, ng* harflarning ko'pincha imlo qoidalari buzilishiga olib kelgani aniq (Abduraxmonova, Isroilov, Matlatipov 2018: 6). Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tilning yanada buzilishiga va chalkashliklarga olib keladigan alifbo mustaqil O'zbekistonga yarashmaydi.

Amaldagi alifbo isloh etiladigan bo'lsa, albatta turkiy tilning boy unlilar tizimini aks ettirishi lozim bo'ladi. Turkiy tillarning barchasida mavjud *ü, ö, ı, ä* tovushlari o'zbek tilida e'tibordan chetda qolgan bo'lib, yangi islohotlar davomida bu unlilar alifbodagi o'rnini topishi kerak. Unlilarning alifboda ifodalanishi o'zbek tiliga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, til o'rganishni osonlashtiradi va tildan foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

Undoshlarni ifodalovchi harf birikmalari bir harfga o'zgartirilishi mumkin. Ta'limiy tajriba asnosida berilgan *shoshil-* so'zida harf birikmasining noto'g'ri o'qilishi kuzatildi (Masalan: *shos-hil-*). Birinchi bo'g'inda *sh* harf birikmasini to'g'ri o'qigan talaba ikkinchi bo'g'inda *s* va *h* harflari tarzida qabul qilgani sababli xatolikka yo'l qo'yadi. Bu holatni talabaning e'tiborsizligi va shu bilan birga alifbodagi chalkashlik sifatida izohlashimiz mumkin.

*Shoshish, xushchaqchaq, ishchi, sharshara, achchiqtosh* kabi so'zlar o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi bilan birga yozish jarayonida klaviatura tugmalarining ortiqcha bosilishi, ya'ni ko'p vaqt talab etishi bilan ham noqulaylikka sabab bo'ladi. Hozirgi davrda vaqt oltinga teng degan hikmatli so'z barcha sohalar uchun juda muhim bo'lib, har bir daqiqaning qadriga yetishimiz kerak. Shu bois harf birikmalari masalasining iqtisodiy jihatlari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Kitoblarni nashr etishda harf birikmalari, tutuq belgisi bo'lgan *o'* va *g'* harflari sahifalarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa ortiqcha harajat deganidir.

O'zbek tili ilmiy til sifatida kelgusi avlodlarga fizika, tibbiyot, kimyo kabi fanlarni o'rgatishga xizmat qilishi kerak. Alifbodagi *o'g'uz, so'z, to'g'ri* kabi so'zlarning yozilishida ko'rishimiz mumkin bo'lgan bir necha tutuq belgisining ishlatilish holatlari yozishdan sovetadi va bolalarning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Alifbo sodda, til turli chalkashliklardan xoli bo'lsagina fikrni yozuvda ifodalash malakasi oshadi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi isloh etiladigan bo'lsa, Abdurauf Fitrat tomonidan 1927- yilda yozilgan "Imlo Konferensiyasi Munosabati Bilan" sarlavhali maqolada ilgari surilgan fikrlarga asoslanib ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Xulosa

Turkiyadagi universitetlarda o'zbek tili ta'limi jarayonida lotin yozuvli o'zbek alifbosi bilan bog'liq qiyinchiliklar ta'lim tajribasi metodi yordamida ko'rib chiqildi. Maqolada bu metod ta'lim jarayonida talabalarning tilga oid nazariy bilimlarini qanday o'zlashtirganliklarini kuzatish va bu jarayon bosqichlarini shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqot usuli sifatida tadbiq etildi.

Ta'lim tajribasi mobaynida o'quv bo'limlari rejalashtirildi, o'quv jarayoni amalga oshirildi, ma'lumotlar to'plandi va o'rganish jarayonining ijtimoiy va individual unsurlari tahlil etildi. Talabaning boshlang'ich bilimlariga asoslanib 1-o'quv bo'limi va 2-o'quv bo'limi bosqichlarida egallangan yangi bilimlar doirasida taxminlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi aniqlandi. Talaba nima o'rgandi degan savolga javob topildi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida kutilgan natijaga erishilmaganlikning sababi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bilan bog'liq chalkashliklardir. Tajriba avvalidagi taxminlarning noto'g'ri chiqishi o'zbek tili ta'limida samaradorlik past deganidir. Shu sababli bu tajriba natijalarini maqola tarzida ma'lum qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Lotin yozuvli o'zbek alifbosini isloh etishda mazkur o'quv tajribasi natijasida bildirilgan fikrlarni inobatga olish foydadan xoli bo'lmaydi.

Lotin yozuvli o'zbek alifbosini isloh etish jarayonida hozirgi alifboda mavjud bo'lmagan ü, ö, ı, ä unllilarining ifodalanishiga e'tibor qaratish, undosh tovushlarni ifodalovchi harf birikmalari va tutuq belgisi kabi unsurlardan voz kechish kerak bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Abdurauf Fitratning mavzuga oid maqolalarining (Avcı 1997: 7-22, Fitrat 1927: 2) yaxshi manba sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

### Adabiyotlar

- Abduraxmonova, N. va Isroilov, J va Matlatipov, S. (2018) O'zbek tili lotin alifbosi uchun klaviatura yoki "unicode" masalasi, *Til ve Edebiyot Ta'limi*, 6. Son, 6-8. Bat
- Avcı, Y. (1997) Fitrat'in Hayati ve İlk Devir Özbekçedeki Dil Bilgisi Terimlerinin Günümüz Özbek ve Türkiye Türkçesindekilerle Karşılaştırılması, *Türk Dünyası Dil ve Edebiyatı Dergisi* 22. Sayı 7Türk 7-22
- Eraslan, K. (2012) *Eski Uygur Türkçesi Grameri*, Türk Dil Kurumu yayınları
- Omonov, Q. (2016). *Uzbek Hujjatchiligining Asoslari: Yuzaga kelishi va tarixiy takomili*. Toshkent: davlat sharqshunosliq instituti.
- Czarnocha, B., & Maj, B. (2008). A teaching experiment. In B. Czarnocha (Ed.), *Handbook of mathematics teaching research -a tool for teachers- researchers* (pp. 47–58). Poland: University of Reszów.
- Coşkun, M. V. (2014). *Özbek Türkçesi Grameri*, Türk Dil Kurumu yayınları

Tekin, F. (2008). Özbek Türkçesinin Latin Alfabeti Esasındaki İmlasi Üzerine, *Turkish Studies International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic* Volume 3/6 s. 604-616.

Fitrat, A. (1927) İmla Konferensiyesi Münasebeti Bilen *Maarif ve oqutguçi*, Nu:3 Taşkent.



УДК 811

## ЗАИМСТВОВАННЫЕ СЛОВА И ОСОБЕННОСТИ ИХ УПОТРЕБЛЕНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Г. ТУКАЯ

*А.М. Харисова*

*студентка 5 курса ФГАОУ ВО «ЕИ КФУ»*

*Научный руководитель – А.С. Хайруллина*

*канд. филол. наук, доцент кафедры*

*татарской филологии ФГАОУ ВО «ЕИ КФУ»*

*(г. Елабуга, Татарстан)*

**Аннотация:** Употребление заимствованных слов – проблема, вокруг которой никогда не утихают споры. Не всегда слова иноязычного происхождения приживаются в нашем языке. В работе характеризуются пути и причины проникновения заимствованных слов в состав произведений Г. Тукая, показывается их употребление в различных его стихотворениях. Словарные статьи содержат широкую информацию: в них раскрывается значение слова, его происхождение, в ряде случаев приводятся культурно-исторические комментарии.

**Ключевые слова:** татарский язык, Тукай, заимствования слов, татарский литературный язык.

## BORROWED WORDS AND FEATURES OF THEIR USE IN WORKS OF G. TUKAY

**Abstract:** The use of borrowed words is a problem around which disputes never subside. Words of foreign origin do not always take root in our language. The paper describes the ways and reasons for the penetration of borrowed words into the composition of G. Tukay's works, shows their use in various of his poems. Dictionary articles contain a wide range of information: they reveal the meaning of the word, its origin, and in some cases provide cultural and historical comments.

**Keywords:** Tatar language, Tukay, borrowing the words of the Tatar literary language.

В татарском литературном языке большинство заимствований происходили из арабо-персидских языков. По семантико-тематическим группам эти слова классифицируются учеными – Ш.А. Рамазановым, К.С. Сабировым, М. И. Махмутовым и др.

Ш.А. Рамазанов выделяет шесть групп арабо-персидских заимствований, используемых в татарском литературном языке в конце XIX-начале XX века:

- 1) религиозная лексика;
- 2) лексика, связанная с педагогической деятельностью;

**МАЗМУНЫ  
I БӨЛИМ  
МАҚАЛАЛАР  
I СЕКЦИЯ  
ФОЛЬКЛОРТАНЫҰ**

Алламбергенов К., Аллаамбергенова Г. Историко-фольклорная типология родословной-генеалогии происхождения Едиге в каракалпакской и ногайской версиях дастана «Едиге».....	3
Юсупова Н.М., Юсупов А.Ф., Фольклорные образы-символы как основа матрицы символизации в татарской поэзии.....	10
Рогачев В.И., Мингазова Л.И. Ч. Айтматов: <u>мифологическая картина мира</u> как фактор литературного развития читателя.....	15
Қорғанбеков Б.С., Габидуллина Ф.И., «Алпамыс батырдың» казак және каракалпак нұсқалары.....	20
Валиева М.Р., Башкирские архетипы, мифонимы, мифологемы.....	27
Палымбетов К. С., Дастан, жырау, мастерство (на примере варианта в исполнении Есемуратом жырау каракалпакского народного дастана «Коблан»).....	31
Сабилова Н.Э., Хоразм халфачилик анъаналарининг тадрижий тараққиеги.....	36
Баўатдинова С.Ж., «Ақсүңгүл»диң халық қосығына айланыў тәрийпи.....	42
Әмирлан С. Е., Қарақалпак балалар фольклорында саўықламалар...	46
Бекчанова С. Б., «Әдалатлы пәрман» нақлининг ғоявий бадий хусусиятлари.....	51
Алламбергенова Н. Г., Барчин образининг қиёсий тахлили («Алпомиш» достонининг ўзбек ва қарақалпак вариантлари асосида).....	54
Турганов Б. Қ. Қарақалпак халық дәстанларында әскерий қурал-жарак түрлерининг сәўлелениўи.....	59
Есебаев М. Халық дәстанларының тарийхий дереклери, ғайры тәбийй образлардың дәстан сюжетинде көркем сәўлелениўи.....	64
Кеңесбаева Ш.К.«Шәрияр» дәстанының дөрелиў дәўири, генезиси хәм жанрлық өзгешеликлери хаққында.....	67

**II СЕКЦИЯ  
ӘДЕБИЯТТАНЫҰ**

Рақымжан Тұрысбек. Абай дүниетанымы: ұлттық мұрат пен мүдде(Хакім Абайдың «Қара сөздеріндегі» адам мұраты мен өмірлік ұстаным мәні) .....	71
Бекбергенова М. Д. К проблеме типологии каракалпакской прозы XX века.....	83
Каюмова Г.Ф. Мифологические образы в татарской детской	

литературе.....	88
Гайнуллина Г.Р. Трансформация философии смерти в военных рассказах Амирхана Еники.....	91
Гасимова Г.Н., Ф.И.Габидуллина. Экологический воспитательный потенциал романа Г. Баширова “Семь родников” (“Жидегән Чишмә”):.....	95
Пертаева Э. К. Зар заман поэзиясының зерттелу тарихы.....	99
Пертаева Э. К. Абай дәуіріндегі казак сатирасы.....	105
Наумова А. А., Ф.И. Габидуллина. Образ выдающихся личностей в современной татарской гражданской лирике.....	111
Бекбергенова З. У. Қарақалпақ романларының ғәрезсизлик жылларында изертлениуи (Күнделикли газеталар мысалында) .....	115
Матякупов С. Г. Гулжамол Асқарова шериятида муножот.....	119
Ҳамроева О. Ж. Мумтоз қофияга оид бадий санъатлар тадқиқи.....	123
Балтаева И.Т., Олимова М.К. Ўзбек адабиёти ривожиди ташқи анъаналарнинг ўрни.....	127
Сапаева Ф. Д. Шерий таржимада радифни акс эттириш.....	132
Сапаева Ф. Д., Ережепова Д. Замонавий таълимда ўзбек тили дарсларида адабий ўқишни ташкил қилиш.....	136
Мамбетов К. П. Образ женщины в поэме «Тумарис» И. Юсупова .....	143
Алдашева Ш. Ж. Поэтик шакллар ранг- баранглиги.....	148
Мамбетназарова Р. К. Изучение трудов русских путешественников в научных исследованиях М.Нурмухамедова.....	153
Матимов К. Г. Қарақалпақ әдебиятында импровизация дәстүри.....	157
Ауымбетова З.М. I.Yusupov liro-epikalıq poemalarınıń kompoziciyalıq ózgeshelikleri.....	160

### III СЕКЦИЯ

#### ТИЛ БИЛИМИ

Raile Kashgari. O‘zbek tili ta’limida lotin yozuvli o‘zbek alifbosi bilan bog‘liq muammolar: Turkiya misolida tahlil va takliflar.....	165
Харисова А.М., Хайруллина А.М., Заимствованные слова и особенности их употребления в произведениях Г.Тукая.....	175
Пирниязова А.Қ., Қарақалпақ тили фразеографиясы мәселесине.....	179
Юлдашева Ш.Ш. Лингвистик шарҳ матн устида ишлашнинг муҳим босқичларидан бири сифатида.....	183
Маҳкамова Д.Н. Модернизациялашув лингвистик ходиса сифатида.....	197
Юсупова Б.Т. Қарақалпақ халық ертеклери тилиндеги фразеологизмлер.....	192
Юсупова Б.Т.Фольклор фразеологиясы: терме толғаўлар тилиндеги фразеологизмлер.....	195
Қурбанов М. Д. Қарақалпақ тилиндеги антропонимлердин ойконимлерге өтиуи мәселеси.....	198

Kdirbaeva G., Bekturdieva S., Agreement expressions in group discussion activities at listening and speaking classes.....	202
Турабаева Н.А., Кочкарова С.А. Оказионализмы в произведениях С.Щедрина.....	206
Турабаева Н.А., Абдиганиев Н.К. Прецедентные феномены каракалпакской культуры как составляющие языковой картины мира.....	210
Жалилов С., Шарипова Г. Давлат тили ҳақидаги қонун ва тил имкониятларидан фойдаланиш масаласига доир.....	214
Искендерова Е. К. Қарақалпақ дәстанлардағы «ат»зооними.....	218
Мамбетмуратова М. Т. Қарақалпақ лексикографиясындағы еки тиллик аўдарма сөзликлердің дүзилиў принципери.....	223

#### IV СЕКЦИЯ

#### ТҮРКИЙ ХАЛЫҚЛАР КОНТЕКСТИНДЕ ӘДЕБИЯТ ҲӘМ ФОЛЬКЛОР

Қобланов Ж.Т. Фольклорлық мұралардағы мифтік негіздер.....	228
Торткүлбаева.Т. Абай шығармашылығының карақалпақ әдебиетімен байланысы.....	231
Амиркулова З. М. Отражение национального героического движения в изображении исторического образа «Нур курбаши» .....	237
Баўатдинова С. Ж., Халық шайыры А. Дабыловтың әдебий дәстүри.....	240
Ктайбекова З. К. Қарақалпақ гүрриңлерінде метафора ҳәм символ.....	244

#### V СЕКЦИЯ

#### ФИЛОЛОГИЯ ТАРАҰЫНДА ӘҲМИЙЕТЛИ ИЗЕРТЛЕҰЛЕРДИ ОҚЫТЫҰ ҲӘМ ҰЙРЕНИҰ МЕТОДИКАСЫ

Кененбаев Е.Т. Кардинальные изменения функций письменной коммуникации с появлением интернета.....	249
Байқабылов У.А. Қазақ тілін оқытуда заманауи технологиялардан пайдалану мүмкіндіктері.....	254
Халиуллина Я.Ф. А.С.Хайруллина. Использование игровых форм во внеклассных занятиях.....	258
Бекбергенова Н.Д. Әдебиет сабағында заман инновацион технологиялардан пайдаланыў мәселелери.....	261



**II БӨЛИМ**  
**ТЕЗИСЛЕР**  
**I СЕКЦИЯ**  
**ФОЛЬКЛОРТАНЫЎ**

Алламбергенов Ҳ.К. Туркий халқлар фольклорида жезтирноқ тимсоли.....	266
Қанаатов Е.Е. Оралтаўдан оралып, Атыраўдан айланған қарақалпақлар.....	269
Өтепбергенова Г.Ө. «Юсуп-Ахмет» дәстанының изертлениўи.....	272
Өтепбергенова Г.Ө. «Юсуп-Ахмет» дәстанының образлар системасы хәм көркемлик өзгешелиги.....	274

**II СЕКЦИЯ**  
**ӘДЕБИЯТТАНЫЎ**

Embergenova M.A., Jandullaeva A.S. Qaraqalpaq ádebiyatında anekdot janrı.....	277
Eshmatova Y.B. Аёллар образи ва руҳиятининг ўрганилиш тарихи...	279
Утамбетова А.Ж. Бердақ дөретиўшилигинде тарийхий-эпикалык шығармалардың қәлиплесиўи.....	283
Бекбергенова А.У. А.Әлиевтиң гүрриңлери М.Нурмухамедов изертлеўлеринде.....	285
Камалова Д.Ә. Алпысбай Султанов новеллалары.....	289
Qudanova Z.S. Hoyim Bo‘tayevning “Hisomiddin Al-Yog‘iy” hikoyasida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.....	293

**III СЕКЦИЯ**  
**ТИЛ БИЛИМИ**

Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde kóp mánili sózlerdiń lingvopoetikası.....	296
Embergenova M. A., Baltabaeva S.M. Kórkem shıǵarma hám sabaqlıqlarda kóp mánili sózlerdiń stillik qollanıwı.....	298
Оразымбетова Э.Ш. Қарақалпақ тил билиминде компьютер лингвистикасынан пайдаланыўдың әхмийетлиги.....	301
Kdirbaeva G., Dauletbaeva M. Language features of newspaper headlines in the telegraph and erkin karakalpakstan.....	304
Турабаева З.А., Заримбетов А.А. Вопрос о многозначности фразеологических единиц в аспекте билингвизма.....	308
Турабаева Н.А. Хайбуллаева М. К вопросу изучения фразеологизмов русского языка в национальной аудитории (на материале узбекского языка) .....	310
Бекниязов Б.К. Соматикалык фразеологизмлердиң қазақ тил билиминде изертлениўи.....	314

#### IV СЕКЦИЯ

### ФИЛОЛГИЯ ТАРАҰЫНДА ӘХМИЙЕТЛИ ИЗЕРТЛЕҰЛЕРДИ ОҚЫТЫҰ ХӘМ ҰЙРЕНИҰ МЕТОДИКАСЫ

Йўлдошев Р.А. Миржалолова Л. Она тили дарсларида ўйинли иш усулларини ташкил этиш масалалари.....	317
Tajetdinova S.M., Chapaeva D. Ayimxan Shamuratova dóretiwshiliginiń qosıq atqarıwshılıǵı janırında talantlı jaslardı jetilistiriwdegi áhmiyeti.....	320
Султанова А. Ўзбек тили дарсларида грамматик материалларни ўрганишнинг лингвистик асослари.....	322
Мырзабекова Г. Баслаўыш класс оқыўшыларына «Әтирапымыздағы әлем» сабағы арқалы тәбият сүйиўшиликти үйретиў.....	324
Төрениязова З.С. Шет тиллерин үйретиўде хабар технологияларынан пайдаланыўдың әхмиётлилиги.....	326

#### III БӨЛИМ

### ЖАС АЛЫМЛАР МИНБЕРИ

Мәтибаева Э.Қ. Жазушы және дүниетаным (Д.Досжан шығармашылығы негизинде) .....	329
Jaqsılıqova A.S. Gúlaysha Esemuratova-qaraqalpaq hayal-qızlarınıń maqtanıshı.....	336
Тилеўмуратова Г. Т. Академиялық лицейлерде технологиялық жантасыўға тийкарланып сабақ өтиў усыллары.....	339
Алламбергенов К., Тилеўмуратова Г. Т. Қарақалпақ әдебиятын дәуирлестирип үйрениў мәселелери.....	347
Мадиярова Қ.О. М.Нызановтың «Душпан» романында символика-метафоралық образлар.....	349
Алламбергенов К., Мадиярова Қ.О. А.Әбдиевтиң «Жин-жыпырлар уясы» романында шеберлик мәселеси.....	353
Abdurahmonova M. A. Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romanida ramz poetikasi.....	355
Камалов А.У. Эркин Воҳидов шеърлятида ҳаётій ҳақиқат ва бадий маҳорат.....	359
Sársenbaev Q.J., A.Abdiev. «Góruǵlı» dástanında feyil frazeologizmlerdiń semantikasi.....	361
Jolımbetova Sh., E.Allanazarov. "Er Qosay"dástanındaǵı frazeologizmler.....	365
Bisenbekova Q. A. Kórkem shıǵarmanıń tili hám onı oqıtıw usılları.....	368
Bisenbekova Q. A. Alpısbay Sultanov shıǵarmalarınıń kórkemlik tili (frazeologizmlerdiń qollanıwı) .....	371
Jamalova U.Q. Máten Seytniyazov dóretiwshiligini oqıtıw(Anaforalardıń qollanıwı).....	376
Azatova J.A. Keńesbay Karimov dóretiwshiligini oqıtıwda innovaciyalıq texnologiyalar.....	378

Azatova J.A. Keñesbay Karimov shıǵarmalarında watan teması.....	380
Biysenbaev Q.Tólepbergen Qayıpbergenovtiń “Tánha ózime málim sır” povestiniń syujetiniń real turmısqa sáykesligi haqqında.....	383
Kuliyeva Z. Gúlaysha Esemuratovaniń dóretiwshiligin oqıtıw metodikası (antonimler misalında) .....	384
Rametova D. G.Shamuratovaniń poeziyasında lirikalıq qaharmanniń ishki ruwxıy keshirmeleri.....	387
Rametova D. G.Shamuratova poeziyasında marsiya janrı.....	390
Куандыкова Б. Т.Мәтмуратов лирикасында тәбият көринисиниң сәўлелениўи.....	393
Куандыкова Б. С.Мәжитовтың «Төрт мәўсим» қосығын оқытыў.....	396
Ктайбекова З., Айтмуратова Е. Ж.Аймурзаев дәретиўшилигин оқытыў методикасы.....	399
Ктайбекова З., Жумағалиева С. К.Рахмановтың «Кардағы из» поэмасын оқытыў методикасы.....	403
Полатбаева М. Ш.Аяпов лирикасында көркем образ дәретиў шеберлиги.....	406
Полатбаева М. «Алпамыс» дәстанында қахарманлық образдың сәўлелениўи.....	410
Сағындықова Н.Қ., И.Юсупов поэзиясының өзгешелиги.....	414
Kúlenova G., Z.Ktaybekova. S.Nietullaev poeziyasında watan temasınıń jırlanıwı.....	416
Djanabergenova A., M.Qurbanov. Qaraqalpaq tilinde egizeklerge tiyisli atlardıń qoyılıw ózgesheligi.....	419
Otarbaeva F.M. Á.Ótepbergenovtiń poeziyasında doslıq temasınıń sáwleleniwi.....	422
Baxshullayeva A., Sapayeva F. Chingiz Aytmatov asarlarida davr va inson muammosi.....	423
Baxshullayeva A., Sapayeva F. Muhammad Yusuf she'rlarining badiiy talqini.....	426
Berdibaeva Z.J. Qaraqalpaq tilinde laqaplardıń jasalıwı.....	429
Berdibaeva G.J. Baslawısh klasta atlıq sóz shaqabınıń jasalıwın oqıtıwdıń ayırım máseleleri.....	431

## АВТОРЛАР ҲАҚҚЫНДА МАҒЛЫУМАТ

- 1.Алламбергенов К.**-филология илимлериниң докторы, профессор, Бердақ атындағы мәмлекетлик сыйлықтың лауреаты. Әжинияз атындағы НМПИ қарақалпақ әдебияты кафедрасы баслығы.
- 2.Рақымжан Тұрысбек**- филология ғылымдарының докторы, профессор. Қазақстан Республикасы, Нурсултан қаласы Л.Н.Гумилев атындағы Евразия миллий университети.
- 3. Рогачев В.И.**-доктор филологических наук, профессор кафедры литературы и методики обучения литературе МГПИ им. М. Е. Евсевьева. Мордовия, Саранск
- 4.Мингазова Л.И.**-доктор филологических наук, профессор кафедры татарской литературы ИФМК КФУ Татарстан, Казань.
- 5. Валиева М.Р.**-кандидат филологических наук, научный сотрудник Ордена Знак Почета Института истории, языка и литературы УФИЦ РАН. Башкортостан, УФА.
- 6. Раиле Кашгари**- Филология фанлари доктори, доцент. Стамбул университети адабиёт факултети ҳазирги туркий тиллар ва адабиётлари болими. Стамбул, Туркия.
- 7. Қобланов Ж.Т.**-Ш.Есенов атындағы Каспий мемлекеттік технологиялар және инжиниринг университетінің профессоры, Ақтау қаласы, Қазақстан Республикасы.
- 8. Юсупова Н.М.**- доктор филологических наук, доцент кафедры татарской литературы Института филологии и межкультурной коммуникации Казанского федерального университета.
- 9. Юсупов А.Ф.** – кандидат филологических наук, доцент кафедры татарского языкознания Института филологии и межкультурной коммуникации Казанского федерального университета.
- 10. Габидуллина Ф.И.**- кандидат филологических наук, доцент кафедра татарской филологии Елабужский институт (филиал) КФУ.
- 11. Хайруллина А.С.**- кандидат филологических наук, доцент Елабужский институт Казанского федерального университета.
- 12. Каюмова Г.Ф.**- Кандидат филологических наук, доцент кафедры татарской литературы. Казанский федеральный университет.Казань, Россия
- 13. Гайнуллина Г.Р.**-Кандидат филологических наук, доцент кафедры татарской литературы КФУ. Казань, Россия.
- 14.Бекбергенова М.Д.**-филология илимлериниң кандидаты, доцент. Әжинияз атындағы НМПИ қарақалпақ әдебияты кафедрасы.
- 15.Палымбетов К.С.**- филология илимлериниң кандидаты, доцент. Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу хизметкерлерин қайта таярлау хәм олардың қәнигелигин арттыруу аймақлық орайы.
- 16. Пирниязова А.К.**-филология илимлериниң кандидаты, доцент. Әжинияз атындағы НМПИ қарақалпақ тили кафедрасы.
- 17. Бекбергенова З.У.**- филология илимлериниң докторы, ӨзРИАКБ Қарақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеу институты.

- 18. Ҳамроева О. Ж.** -ТошДЎТАУ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
- 19. Сапаева Ф.Д.** – Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори.
- 20.Т.Тортқулбаева-ф.ғ.д.,** (PhD). Эжинияз атындағы Нөкіс мемлекеттік педагогикалық институты, Қазақ тілі және әдебиеті кафедрасы.
- 21. Эшматова Ю.Б.**-Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат озбек тили ва адабиёти университети катта ўқитувчиси.
- 22.Kdirbaeva G-** филология илимлари бойынша философия докторы (PhD) Эжинияз атындағы НМПИ, англичан тили хэм әдебияты кафедрасы доценти.
- 23.Балтаева И.Т.**-Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети “Ўзбек ва чет тиллари ”кафедраси доценти,филология фанлари номзоди.
- 24.Сабирава Э.Н.**- (PhD) Хоразм ВХТХҚТМОҚМ.
- 25.Allanazarov E-** filologiya ilimlari kandidati, NMPI Qaraqalpaq tili kafedrası baslıgı
- 26. Йўлдошев Р.А.**- п.ф.н., Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган халқ таълими ходими;
- 27.Миржалолова Л.**- п.ф.н., доцент
- 28.Баўатдинова С. Ж.**- филология илимлериниң кандидаты. Эжинияз атындағы НМПИ, қарақалпақ әдебияты кафедрасы оқытыўшысы.
- 29.Матякупов С. Г.**- Филология фанлар номзоди, доцент. Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти ўзбек адабиёти кафедраси мудири,
- 30.Ҳамроева О. Ж.**-ТошДЎТАУ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
- 31.Алдашева Ш. Ж.**-Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти ўзбек адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.д.(PhD)
- 32.Хайруллина А.С.**-канд. филол. наук, доцент кафедрасы татарской филологии ФГАОУ ВО «ЕИ КФУ» (г. Елабуга, Татарстан)
- 33. Харисова А.М.**- Елабужский институт Казанского федерального университета. Студент.
- 34.Юлдашева Ш. Ш.**- Педагогика фанлари номзоди, доцент Ажиниёз номидаги Нукус ДПИ, Нукус шаҳри, Қорақалпоғистон
- 35.Маҳкамова Д.Н.**-Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети(ТошДЎТАУ)ўқитувчиси, Тошкент
- 36.Юсупова Б. Т.**-Эжинияз атындағы Нөкіс мәмлекетлик педагогикалық институты Қарақалпақ тили кафедрасының үлкен оқытыўшысы
- 37.Қурбанов М.Д.**- Эжинияз атындағы Нөкіс мәмлекетлик педагогикалық институты Қарақалпақ тили кафедрасының үлкен оқытыўшысы
- 38. Алламбергенов Ҳ. К.**- Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти ўзбек адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.д.(PhD)
- 39.Турабаева Н.А.**- Филология илимлари кандадаты.Эжинияз атындағы НМПИ, рус тили хэм әдебияты кафедрасы үлкен оқытыўшысы
- 40. Жалилов С.**- Нукус ДПИ ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси

41. **Бекбергенова Н.Д.**-Нөкис қалалық билимлендириў бөлиминде қараслы №19 санлы мектептің рус тили ҳәм әдебияты оқытыўшысы.
42. **Амиркулова З. М.**-Термезский Государственный Университет, Кафедра начального обучения, преподаватель, Узбекистан
43. **Кененбаев Е.Т.**-преподаватель, кафедра русского языка и литературы, Чирчикский государственный педагогический институт
44. **Байқабылов У.А.**-Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының аға оқытушысы.
45. **Embergenova M. A.** -Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı, qaraqalpaq tili kafedrası docenti, filologiya ilimleriniń kandidatı
45. **Султанова А.**-п.ф.ф.д (PhD)., Нукус ДПИ катта ўқитувчиси
46. **Наумова А.А.**- Елабужский институт Казанского федерального университета. Студент.
47. **Мәтібаева, Э.Қ.** – 2 курс магистранты, Л.Н.Гумилев атындағы Еуразия ұлттық университеті. Астана, Қазақстан.
48. **Гасимова Г.Н.**- Елабужский институт (филиал) КФУ. Студент.

**Әжинияз атындағы НМПИ редакция-баспа бөлими**  
**Әжинияз атындағы НМПИ баспаханасында басылған. 2020-ж.**  
**Форматы 60x84 Көлеми 28,1 б.т.**  
**230105, Нөкис қаласы, Билимлилер гүзары, 20-үй. Реестр №11-3084**